

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI**Xudaibergenova Dilnoza Ulug'bek qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy axborot vositalari huquqi yo'nalishi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14211478>

Annotatsiya. Ushbu maqola raqamli iqtisodiyot sharoitida intellektual mulk huquqining o'zgarishi va rivojlanishi, O'zbekiston Respublikasining ushbu sohadagi qonunchiligida amalga oshirilgan so'nggi islohotlar, hamda xorijiy tajribalar bilan qiyoslash orqali mavjud imkoniyat va muammolarni tadqiq etishga qaratilgan. Maqola raqamli texnologiyalar va intellektual mulkning yangi shakllari rivojlanayotgan bir paytda, ushbu aktivlarning huquqiy himoyasini ta'minlashda duch kelinayotgan qiyinchiliklarni ochib beradi. O'zbekistonda intellektual mulkni raqamli iqtisodiyotga moslashtirish bo'yicha qabul qilingan yangi qonun va qarorlar, hamda xalqaro tajriba asosida amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: intellektual mulk, raqamli, iqtisodiyot, jamiyat, huquq, texnologiyalar, sun'iy intellekt, mualliflik huquqi, Islohotlar, Xalqaro.

INTELLECTUAL PROPERTY RIGHTS IN THE DIGITAL ECONOMY

Abstract. This article SIMs to examine the changes and development of intellectual property rights in the digital economy, the latest reforms implemented in the legislation of the Republic of Uzbekistan in this area, and the existing opportunities and challenges by comparing them with foreign experience. The article reveals the difficulties encountered in ensuring the legal protection of these assets at a time when digital technologies and new forms of intellectual property are developing. New laws and resolutions adopted in Uzbekistan to adapt intellectual property to the digital economy, as well as measures to be implemented based on international experience, are also analyzed.

Key words: intellectual property, digital, economy, society, law, technology, artificial intelligence, copyright, Reforms, International.

**ПРАВА ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ В ЦИФРОВОЙ
ЭКОНОМИКЕ**

Аннотация. Данная статья направлена на изучение существующих возможностей и проблем изменения и развития права интеллектуальной собственности в условиях цифровой экономики, последних реформ в законодательстве Республики Узбекистан в этой сфере, а также путем сравнения с зарубежным опытом. В статье раскрываются трудности, с которыми сталкиваются цифровые технологии и новые формы интеллектуальной собственности при обеспечении правовой защиты этих активов. Будут

проанализированы принятые в Узбекистане новые законы и решения по адаптации интеллектуальной собственности к цифровой экономике, а также меры, которые должны быть реализованы на основе международного опыта.

Ключевые слова: интеллектуальная собственность, цифра, экономика, общество, право, технология, искусственный интеллект, авторское право, реформы, международный.

Kirish. Barchamizga ma'lumki bugungi XXI asrda global miqyosda tez rivojlanib kelayotgan raqamli iqtisodiyotda intellektual mulk huquqi, jamiyat va iqtisodiyotning deyarli barcha sohalariga o'zining sezilarli ta'sirini o'tkazib kelmoqda. Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi bugungi jamiyatda intellektual mulk huquqlariga yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Ushbu iqtisodiy tizim yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi va ulardan keng foydalanish bilan tavsiflanib, axborot texnologiyalari, dasturiy ta'minot, raqamli kontent va boshqa intellektual aktivlarga bo'lgan ehtiyoj bugungi kunda kundan-kunga oshib bormoqda.

Shu sababli, zamonaviy iqtisodiyot sharoitida intellektual mulk huquqlarini himoya qilish masalasi ham yanada dolzarblashib bormoqda. Raqamli mahsulotlarning soni ortib, global miqyosdagi oson almashinuv imkoniyatlari yaratilgan bir paytda, intellektual mulkni himoya qilishning yangi huquqiy va texnologik mexanizmlarini joriy etish zarurati dolzarb masalaga aylandi.

Internet texnologiyalari, sun'iy intellekt va blokcheyn kabi yangi texnologiyalar paydo bo'lishi intellektual mulk (IM) huquqlarini muhofaza qilish masalasini bugungi kunda muhim masalaga aylandi. Mualliflik huquqlari, savdo belgilar va patentlarni himoya qilish masalalari raqamli mahsulotlar va xizmatlar tarqalishi bilan yanada murakkablashdi. Odamlar raqamli mahsulotlarni tezda ulashish, nusxalash yoki qayta ishlash imkoniyatiga ega bo'lishi sababli, IM himoyasi raqamli sharoitda o'ziga xos yangi yondashuvlarni talab qiladi. Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi bilan intellektual mulkni himoya qilish yangi ma'lumotlar huquqlarini aniqlash va himoya qilish, SI tomonidan yaratilgan ishlarning huquqiy maqomi, transchegaraviy buzilishlar, internet platformalarining javobgarligi va savdo sirlarini himoya qilish bugungi kunda muhim masalalardan hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyotning tez suratlarda rivojlanishi bilan global iqtisodiyot chuqur rivojlanib kelmoqda va bugungi rivojlangan dunyoda raqamli texnologiyalarning keng va tez rivojlanishi nafaqat an'anaviy iqtisodiy modellarni o'zgartirdi, balki misli ko'rilmagan huquqiy muammolarni ham keltirib chiqardi.

Intellektual mulk (IP), innovatsiyalarni himoya qilish va yaratilishni rag'batlantirishning muhim huquqiy vositasi sifatida, raqamli iqtisodiyot davrida yangi qiyinchiliklar va imkoniyatlarga duch keladi.

Barcha rivojlangan davlatlar qatorida O'zbekiston ham global iqtisodiy va texnologik jarayonlar ta'sirida intellektual mulkni himoya qilish sohasida qator islohotlarni amalga oshirmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda mamlakatimizda raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va ulardan samarali foydalanishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat dasturlari va qonunchilikdagi yangiliklar intellektual mulk huquqlarini ta'minlash borasidagi qonunchilikni rivojlantirishni talab etmoqda. Intellektual mulkni himoya qilishga qaratilgan huquqiy baza raqamli iqtisodiyotda faoliyat yurituvchi tadbirkorlar va ijodkorlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi, chunki intellektual mulkning himoya qilinishi ular uchun moliyaviy va ma'naviy daromad manbai hisoblanadi.

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot rivojlanishi davlat strategiyasining muhim qismi sifatida e'tirof etilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021-yilda tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi mamlakatda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va innovatsion iqtisodiyot asoslarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Ushbu strategiya doirasida raqamli iqtisodiy faoliyatning huquqiy asoslarini mustahkamlash, intellektual mulk himoyasini ta'minlash va raqamli innovatsiyalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Intellektual mulk huquqlari raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan bog'liq holda, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Bu iqtisodiy sektorda innovatsiyalarni himoya qilish, ijodiy faoliyatni rag'batlantirish va milliy iqtisodiyotni raqobatbardosh qilish uchun zarur vosita hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida intellektual mulk huquqlarini himoya qilish borasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. So'nggi yillarda O'zbekistonda intellektual mulk obyektlarini huquqiy himoya qilishga qaratilgan qonun va qarorlar ishlab chiqildi va qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasining Intellektual mulk to'g'risidagi qonuni va unga kiritilgan o'zgartirishlar, shuningdek, Prezident farmonlari orqali intellektual mulk huquqlarini raqamli iqtisodiyotda himoya qilishning yangi tartib-qoidalari joriy qilinmoqda. O'zbekistonda intellektual mulk huquqiga oid qonunchilik tizimi faqat milliy normativ-huquqiy hujjatlaridan iborat emas. Bu sohadagi milliy qonun hujjatlarini rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan xalqaro konvensiyalar va shartnomalar muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda intellektual mulkni muhofaza qilish sohasida 30 dan ortiq davlatlararo, hukumatlararo va idoralararo shartnoma hamda bitimlar imzolangan.

Ayni vaqtda intellektual mulk himoyasini kuchaytirish maqsadida normativ-huquqiy asoslar mustahkamlanmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-mart "Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda huquqiy xizmat ko'rsatishda adliya organlari va muassasalari faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-89-son farmoni intellektual mulk huquqining uzoq yillarga mo'ljallangan istiqbolini belgilab bergan hujjat sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Unga ko'ra bugungi globallashuv jarayoni jadallik bilan o'zgarib borayotgan hayot, davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash uchun ham yangi konstitutsiyaviy islohotlarni o'tkazish, unda intellektual mulkning ham munosib o'rmini belgilash vazifasini qo'yimoqda. Bunda e'tiborli jihati shundaki, intellektual mulkni muhofaza qilishga oid norma deyarli barcha rivojlangan davlatlarning Konstitutsiyalarida atroflicha yoritilgan. Ushbu islohotlar davlatlar tomonidan innovatsion mahsulotlarni, ayniqsa, raqamli formatdagi kontentlarni himoya qilish va ular bilan bog'liq mualliflik huquqlari, patent va savdo belgilarining himoya qilinishini ta'minlashga qaratilgan. Ammo, raqamli iqtisodiyotning jadal rivoji intellektual mulk sohasidagi mavjud huquqiy normalarning yangilanishini talab qilmoqda. Barcha davlatlar, shu jumladan O'zbekiston, raqamli muhitda intellektual mulk huquqlarini himoya qilishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Zamonaviy texnologiyalar yordamida kontentlarni tezkorlik bilan ko'paytirish va tarqatish imkoniyati mualliflik huquqlari va boshqa intellektual mulk himoyasiga tahdid solmoqda. Bu tahdidlarni bartaraf etish maqsadida yangi qonun hujjatlarini ishlab chiqish, xalqaro standartlarga muvofiq qoidalarga asoslanish zarurati tug'ilmoqda. Raqamli iqtisodiyotdagi yangi sharoitlarga moslashgan holda milliy qonunchilik tizimini takomillashtirish hozirgi kunda O'zbekiston uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Metodologiya. Ushbu tahliliy maqolamizda raqamli iqtisodiyot sharoitida intellektual mulk huquqlarining o'zgarish tendensiyalari va huquqiy muammolarini o'rganish uchun turli ilmiy yondashuvlar qo'llanildi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — raqamli iqtisodiyot sharoitida intellektual mulkni himoya qilishga oid mavjud milliy va xalqaro huquqiy normalarni aniqlash hamda ularning dolzarbligini baholashdir. Bu jarayonda taqqoslash, huquqiy tahlil va statistik ma'lumotlardan foydalanish asosiy usul sifatida tanlandi. Tadqiqot, asosan, qonunchilikdagi muammolarni aniqlash va global tajribalar bilan solishtirish orqali ularni hal etish bo'yicha takliflar ishlab chiqishga qaratilgan.

Birinchi navbatda, taqqoslash usuli qo'llanildi. Ushbu usul yordamida milliy va xalqaro qonunchilik tizimlari o'rtasidagi o'xshashlik hamda farqlar aniqlab chiqildi.

Masalan, O'zbekiston Respublikasining "Intellectual mulk to'g'risidagi qonuni" Yevropa Ittifoqining Digital Single Market Directive (2019) hujjati bilan qiyoslandi. Ushbu qiyosiy tahlil orqali intellektual mulk himoyasining raqamli iqtisodiyot sharoitida qanday rivojlanishi mumkinligi aniqlanib, milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Yevropa Ittifoqi tajribasi shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar tezkor rivojlanayotgan davrda mualliflik huquqlari va savdo belgilarini himoya qilishda yangi mexanizmlar talab etiladi.

Ikkinchi yo'nalish huquqiy tahlil bo'lib, u milliy qonunchilik hujjatlarining tizimli tahlilini o'z ichiga oladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi va unga mos ravishda ishlab chiqilgan qonun va qarorlar o'rganildi. Ushbu strategiyada raqamli iqtisodiyotdagi innovatsiyalarni himoya qilish, intellektual mulk obyektlari uchun huquqiy muhit yaratish kabi vazifalar belgilangan. Tadqiqot davomida xalqaro shartnomalar, jumladan, TRIPS bitimi va Berne Konvensiyasidagi asosiy qoidalar milliy qonunchilik bilan qiyosiy tahlil qilindi. Ushbu qoidalarning milliy huquqiy tizimga tatbiq etilishi intellektual mulk himoyasi samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan.

Tadqiqotda foydalanilgan asosiy manbalardan biri Jahon Intellektual Mulk Tashkilotining (WIPO) "Global Innovation Index" hisobotidir. Ushbu hisobotda ta'kidlanganidek, "Raqamli iqtisodiyotda innovatsiyalarni rivojlantirish intellektual mulkni himoya qilishning mustahkam tizimini talab qiladi" (WIPO, 2023, 12-b). Ushbu fikr tadqiqotning ilmiy asosi sifatida qabul qilinib, raqamli iqtisodiyot sharoitida intellektual mulkni muhofaza qilishga doir milliy yondashuvlarni ishlab chiqishda muhim vosita sifatida xizmat qildi.

Bundan tashqari, statistik tahlil orqali raqamli iqtisodiyotdagi intellektual mulkni muhofaza qilish bo'yicha dolzarb tendensiyalar o'rganildi. Xususan, WIPO tomonidan taqdim etilgan statistik ma'lumotlar asosida O'zbekistonning intellektual mulkni himoya qilishdagi natijalari global ko'rsatkichlar bilan solishtirildi. Hisobotda O'zbekistonning xalqaro reytinglar bo'yicha intellektual mulk sohasidagi o'rini aniqlash va ularni yaxshilash uchun tavsiyalar ishlab chiqishga asos bo'ldi.

Tadqiqotimizda turli to'siqlar ham mavjud. Xususan, ishimiz milliy qonunchilik va xalqaro shartnomalar bilan chegaralangan. Ba'zi statistik ma'lumotlarning mavjud emasligi va xalqaro sud qarorlariga to'liq kirish imkoniyatining cheklanganligi tadqiqotning ba'zi natijalariga ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotning tezkor rivojlanishi sababli ba'zi yondashuvlar vaqt o'tishi bilan yangilanishni talab qilishi mumkin.

Natijalar (results). Raqamli iqtisodiyotning tezkor rivojlanishi intellektual mulk huquqlari bilan bog'liq yangi shakllar va mexanizmlarni ishlab chiqishni talab qilmoqda.

SI tomonidan yaratilgan asarlar, raqamli kontent va dasturiy ta'minot kabi yangi obyektlarning paydo bo'lishi mavjud huquqiy me'yorlarni qayta ko'rib chiqishga sabab bo'lyapti.

Xususan, Jahon Intellektual Mulk Tashkilotining hisobotida qayd etilganidek, "Raqamli iqtisodiyot innovatsiyalarni rag'batlantiruvchi vositalar sifatida intellektual mulk huquqlarini mustahkamlashni talab qiladi". Ushbu yondashuv yangi shakldagi obyektlarni samarali himoya qilishga qaratilgan.

SI tomonidan yaratilgan asarlarning huquqiy maqomi hozirda dolzarb masalalardan biridir.

O'zbekistonda sun'iy intellekt yaratgan kontentga egalik va mualliflik huquqi tartibga solinmagan bo'lsa, AQShda bu boradagi qonunchilik inson muallifligini talab qilgani sababli, SI tomonidan yaratilgan asarlarni mualliflik huquqlari bilan himoya qilmaydi. Shu bilan birga, Yevropa Ittifoqining yondashuvi ushbu obyektlarga huquqiy maqom berishga moyildir. "SI orqali yaratilgan san'at, musiqa yoki dasturiy ta'minot asarlari texnologiyalar va huquqning integratsiyalashuvini talab qilmoqda" deb yozgan edi Jorjtaun universiteti Huquq markazi professori Juli Kohen va Vanderbilt universiteti Huquq fakulteti mutaxassisi Daniel J. Gervais.

Raqamli kontentning ko'payishi va onlayn platformalar orqali tarqatilishi mualliflik huquqlarining buzilishi xavfini oshiradi. Masalan, Yevropa Ittifoqining "Digital Single Market Directive" qonuni ushbu muammolarni bartaraf etish uchun yangi mexanizmlarni joriy qildi. Ushbu qonun raqamli platformalar va kontent yaratuvchilari o'rtasida mas'uliyatli hamkorlikni ta'minlashga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasining intellektual mulkni himoya qilishga oid qonunchiligi raqamli iqtisodiyotga moslashishni boshlagan. Mamlakatning "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida intellektual mulkni rivojlantirish va himoya qilish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu strategiyada qayd etilganidek, "Raqamli iqtisodiyotda innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash milliy qonunchilikni global standartlarga moslashtirish orqali amalga oshiriladi".

So'nggi yillarda "Intellektual mulk to'g'risidagi qonun" va unga kiritilgan o'zgarishlar intellektual obyektlarni himoya qilishning huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan. Misol tariqasida, raqamli texnologiyalar yordamida yaratilgan obyektlarni muhofaza qilishda yangi qoidalar ishlab chiqilgan.

Prezidentning 2022-yilda qabul qilingan farmonlari milliy qonunchilikni raqamli iqtisodiyotga moslashtirish bo'yicha muhim qadam hisoblanadi. Farmonlarda intellektual mulk obyektlarini, xususan, dasturiy ta'minot va raqamli kontentni himoya qilish mexanizmlari alohida belgilangan.

Asosiy muammolar esa ko'proq, uning buzilishlari bilan bog'liq bo'lib qolmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida intellektual mulk huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq bir qator murakkab

muammolar mavjud bo'lib, ular asosan transchegaraviy buzilishlar, internet platformalarining javobgarligi, mualliflik huquqlarining raqamli formatda buzilishi va zamonaviy texnologiyalar bilan bog'liq huquqiy masalalarni o'z ichiga oladi.

Raqamli mahsulotlarning tezkor almashinuvi va global foydalanish imkoniyatlari transchegaraviy huquqbuzarliklarni yanada kuchaytiradi. Ushbu holatlar odatda intellektual mulk obyektlari, masalan, dasturiy ta'minot yoki raqamli kontentning noqonuniy nusxalanishi va tarqatilishida namoyon bo'ladi. Xalqaro huquqiy mexanizmlarning samarasizligi sababli, bunday buzilishlarni tartibga solish qiyinlashmoqda.

Bundan tashqari, raqamli platformalar mualliflik huquqlarining buzilishida asosiy vositachi sifatida qoldi. Onlayn platformalarda noqonuniy kontentning tarqalishi mualliflik huquqlari egalariga katta zarar yetkazadi. Yevropa Ittifoqining Digital Single Market Directive (2019) qonunida platformalarning javobgarligini oshirish uchun yangi mexanizmlar taklif qilingan, ammo bu yondashuv universal yechimni ta'minlay olmaydi. O'zbekiston qonunchiligida ham aynan platformaga javobgarlik yuklanmagan. AQSh qonunchiligida esa "Digital Millennium Copyright Act" (DMCA) doirasida platformalar, odatda, uchinchi tomon faoliyati uchun javobgar emasligi ko'rsatilgan. Bu ikki xil yondashuv orasidagi muvozanatni topish global miqyosda hal qilinishi lozim bo'lgan masalalardan biridir.

Blokcheyn texnologiyasi hujjatlarni muhofaza qilish va mualliflik huquqlarini monitoring qilishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Shunga qaramasdan, bu texnologiya bilan bog'liq huquqiy masalalar, masalan, tokenizatsiya orqali raqamli obyektlarni sotish va ulardan foydalanish qoidalari, hali to'liq ishlab chiqilmagan. Sun'iy intellektning yangi imkoniyatlari esa intellektual mulk huquqlarini aniqlash va taqdim etish jarayoniga taqdim etadi.

Raqamli iqtisodiyotga mos intellektual mulk himoyasi esa yanada dolzarbdir. Raqamli iqtisodiyot sharoitida intellektual mulkni samarali himoya qilish zamonaviy texnologik vositalardan foydalanishni, xalqaro standartlarga muvofiq qonunchilikni moslashtirishni va innovatsiyalarni rag'batlantirish uchun maxsus huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Raqamli texnologiyalar, masalan, blokcheyn, mualliflik huquqlarini muhofaza qilishning yangi usullarini taqdim etadi. Blokcheynning o'zgaruvchanlikka qarshi tabiatidan foydalanib, mualliflik huquqlari va patentlarni ro'yxatdan o'tkazish, ularni monitoring qilish va qonunbuzarliklarni aniqlash mumkin. Misol tariqasida, WIPO tomonidan qo'llanilgan blokcheyn texnologiyasi orqali mualliflik huquqlarini himoya qilish tajribasini keltirish mumkin.

Xalqaro standartlarga muvofiq qonunchilikni moslashtirish yana bir yechimdir. Milliy qonunchilik xalqaro standartlarga moslashtirilishi lozim.

Berne Konvensiyasi va TRIPS bitimi kabi xalqaro hujjatlardagi talablarga muvofiq milliy qonunlarni shakllantirish raqamli iqtisodiyotda intellektual mulk himoyasini mustahkamlash uchun zarur. O'zbekistonning xalqaro shartnomalarga qo'shilishi ushbu jarayonda muhim o'rin tutadi.

Shu sababli ham innovatsiyalarni rag'batlantirish uchun huquqiy mexanizmlar ishlab chiqilishini nazoratga olish talab etiladi. Raqamli iqtisodiyotda innovatsiyalarni rag'batlantirish huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish bilan bog'liq. Masalan, Yevropa Ittifoqining intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish va innovatsiyalarni himoya qilishga qaratilgan dasturlari O'zbekistonda o'rganilib, milliy sharoitga moslashtirilishi mumkin. Jahon Bankining hisobotiga ko'ra, "Innovatsiyalarni rag'batlantirish uchun intellektual mulk huquqlarining samarali himoyasi zarur shart-sharoitdir" (World Bank, 2023, 28-b).

Munozara (Discussion). Raqamli iqtisodiyot sharoitida intellektual mulkni himoya qilish masalalari O'zbekiston qonunchiligi va xorijiy tajribani qiyosiy tahlil qilish, milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish, shuningdek, intellektual mulkning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini baholash orqali o'rganilishi zarur.

O'zbekistonning intellektual mulkni himoya qilishga oid qonunchiligi so'nggi yillarda sezilarli darajada rivojlandi. Xususan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida intellektual mulkni raqamli iqtisodiyot sharoitiga moslashtirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu strategiya intellektual mulkning iqtisodiyotni rag'batlantirish va innovatsion jarayonlarni qo'llab-quvvatlashdagi ahamiyatini e'tirof etadi.

Xalqaro tajribada esa raqamli iqtisodiyotdagi intellektual mulk himoyasiga yondashuvlarning xilma-xilligi kuzatiladi. Masalan, AQShda "Digital Millennium Copyright Act" (DMCA) qonuni onlayn kontentni himoya qilish uchun qattiq javobgarlik choralari joriy etgan bo'lsa, Yevropa Ittifoqining Digital Single Market Directive (2019) qonuni platformalarni noqonuniy kontent uchun mas'ul qilish orqali yangi yondashuvni shakllantirdi. Bu ikki yondashuvni taqqoslash orqali O'zbekiston uchun o'rta yo'lni topish imkoniyati mavjud.

Intellektual mulkning iqtisodiy ahamiyati va uning jamiyatga ta'siri aynan yuqoridagi davlatlarda tartibga olinishning natijasida kelib chiqqan imkoniyatlar bilan o'lchanadi.

Intellektual mulk jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mualliflik huquqlari, patentlar va savdo belgilarining huquqiy himoyasi ijodiy faoliyatni rag'batlantiradi, innovatsiyalarni rivojlantiradi va iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlaydi. Misol uchun, Jahon Banki ma'lumotlariga ko'ra, "Intellektual mulkning huquqiy himoyasi iqtisodiy o'sishni ta'minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun muhim shart-sharoit hisoblanadi" (World Bank, 2023, 40-b).

Shu bilan birga, intellektual mulk jamiyatning madaniy rivojlanishiga ham katta hissa qo'shadi. Milliy san'at va ijodkorlikning himoya qilinishi milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar yordamida intellektual mulk obyektlarini global miqyosda ommalashtirish imkoniyati yaratiladi. Bu esa mamlakatning xalqaro imijini yaxshilaydi.

O'zbekiston raqamli iqtisodiyotda intellektual mulkni samarali himoya qilish orqali o'z iqtisodiy va madaniy salohiyatini oshirishi, xalqaro maydonda raqobatbardoshligini kuchaytirishi va innovatsiyalarni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratishi mumkin.

Xulosa. Ushbu tadqiqot raqamli iqtisodiyot sharoitida intellektual mulk huquqlarini himoya qilishning dolzarbligi va muammolarini atroflicha tahlil qilishga bag'ishlandi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi intellektual mulk huquqlarini boshqarishning an'anaviy mexanizmlariga yangi talablarni qo'ymoqda. Raqamli mahsulotlar va texnologiyalarning tezkor rivoji bilan bog'liq murakkabliklar xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va milliy qonunchilikni global standartlarga moslashtirishni talab qiladi.

Tadqiqot davomida aniqlangan muhim natijalar quyidagicha xulosa qilishimizga sabab bo'ladi:

Birinchidan, intellektual mulk huquqlarini raqamli iqtisodiyotga moslashtirishning zaruriyati oshib bormoqda. Raqamli mahsulotlar, jumladan, sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan asarlar va raqamli kontentning ko'payishi mavjud huquqiy tizimlarni qayta ko'rib chiqishni talab qilyapti. Tadqiqotda qayd etilganidek, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish intellektual mulk obyektlarini samarali himoya qilish uchun asosiy shartdir.

Ikkinchidan, global va milliy qonunchilikning sintezi amalga oshirilishi zarur. Yevropa Ittifoqi va AQSh kabi yetakchi davlatlar tajribasi O'zbekistonning qonunchiligini takomillashtirish uchun muhim o'rnak bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, Digital Single Market Directive va Digital Millennium Copyright Act qonunlari milliy sharoitga moslashtirilishi lozim. Ushbu tajribalar orqali transchegaraviy muammolarni hal qilish va raqamli platformalarning javobgarligini kuchaytirish mumkin.

Uchinchidan, innovatsiyalarni rag'batlantirish va iqtisodiy barqarorlikka erishish kerak.

Intellektual mulk huquqlarining samarali himoyasi nafaqat ijodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlaydi, balki iqtisodiy o'sishga ham katta hissa qo'shadi. Tadqiqot davomida mualliflik huquqlari va patentlarning tijoratlashuv jarayonidagi o'rni alohida ta'kidlandi.

REFERENCES

1. Yao Shunyu. An Investigation into Intellectual Property Protection Issues in the Digital Economy Era: A Perspective from Trademark Infringement Cases in Hebei Province [J]. Henan Science and Technology, 2024, 51 (03): 126-131
2. World Intellectual Property Organization. (2023). Global Innovation Index 2023: Innovation in the Digital Economy. WIPO. <https://www.wipo.int>
3. Cohen, J. E., & Gervais, D. J. (2021). Artificial intelligence and copyright: Reflections on authorship and originality. Oxford University Press.
4. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi <https://lex.uz/docs/-5030957>
5. World Bank. (2023). Digital economy and intellectual property protection: Challenges and opportunities. Washington, DC: World Bank Publications.